

**O'ZBEKISTONDA TURIZM SALOHIYATINI YANADA
OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH**

Abdisatarova Muqaddas

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Turizm yo'nalishi

TOUP_510 guruh talabasi

Annotatsiya: O'zbekiston - boy madaniy, tarixiy va tabiiy diqqatga sazovor joylarga ega. O'zbekistonda bir paytlar Ipak yo'li tarixiy savdo yo'li bo'ylab asosiy bekat bo'lgan bir qancha qadimiy shaharlar joylashgan. Shuning uchun, O'zbekiston sayyohlar orasida tobora ommalashib bormoqda va juda ko'plab sayyohlar tashrisha buyurmoqda. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi qulay iqtisodiy sharoitlar va omillarni yaratish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilash, uning iqtisodiyotdagi o'rni va ulushini oshirish, xizmatlar va ularning sifatini oshirish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: turizm, salohiyat, rivojlantirish, tarixiy, sayyohlik agentliklari, madaniy meros.

KIRISH

O'zbekiston o'zining ko'plab tarixiy-me'moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur'atlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o'ziga tortmoqda.

Asrlar mobaynida O'zbekiston Buyuk ipak yo'lining savdo, savdogarlar va sayohatchilar, jo'g'rofiyashunoslar va missionerlar, isti'lochilar va zabt etuvchilarning yo'lida joylashgan edi. Ayni paytda esa, O'zbekiston tashabbuskor, madaniyat, tarix, an'ana va ekzotik mamlakatlarga qiziquvchilar uchun maftunkor sayyohlik yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

O'zbekiston ajdodlardan bugungi kungacha saqlanib qolgan me'moriy yodgorliklari bilan faxrlanadi. Xivadagi Ichan-Qala majmuasi, Buxorodagi tarixiy markazlar, Shahrisabz va Samarqand shaharlari UNESCO ning "Butun dunyo me'rosi" ning maxsus ro'yxatiga kiritilgan. Bu shaharlardagi takrorlanmas yodgorliklar va me'moriy inshootlar o'tmish zamonlarni o'zida aks ettirib, mamlakat tarixida katta rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Turizm ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega keng qamrovli soha. U daromadliligi bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinda turadi. Yana bir muhim tomoni, kam xarajat bilan ko'p ish o'rinlari yaratish imkonini beradi.

Mamlakatimizda bu soha izchil rivojlanmoqda. Jumladan, 2022-yilda yurtimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 2021-yilga nisbatan 3 baravar oshgan. 2023-yilda esa tashrif buyuruvchilar soni deyarli 7 millionni tashkil etdi. Soha eksporti 1 milliard 600 million dollarni tashkil etgan. Ichki turizm dasturlari doirasida 11 milliondan ziyod aholi sayohat qilgan. Samarqandda yangi turizm markazi barpo etilgani natijasida u yerga qo‘shimcha 2 million sayyoh kelgan. Aslida mamlakatimizda bu sohadagi salohiyat bundan ancha yuqori. Yurtimizga kelmoqchi bo‘lgan sayyohlar juda ko‘p. Lekin, ularni qiziqtiradigan joylar haqida kontent kam, turistlarni 4-5 kun olib qoladigan dasturlar yetishmaydi. Samolyot va poyezdga biletni bir necha oy oldindan sotib olishda noaniqliklar ko‘p.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Uzoq xorijliklar uchun O‘zbekistonning darvozasi bu – aeroport. So‘nggi yillarda 5 ta yangi xususiy aviakompaniya tashkil qilindi, aviatsiya parkimiz 44 taga yetdi. O‘tgan yili Samarqand aeroporti “beshinchi osmon” rejimida ishlashiga o‘tgan hisobiga, haftalik aviaqatnovlar soni 46 tadan 78 taga, yo‘lovchi oqimi esa 6,5 mingdan 10 mingtaga ko‘paydi. Lekin, ichki reyslar taqchilligi haftasiga Nukus va Urganchga 20 tani, Samarqandga 15 tani, Buxoro va Termizga 11 tani tashkil qilayapti. Shu kabi, temiryo‘lda haftasiga 68 ta qo‘shimcha qatnovga, 350 ta yangi vagonga talab bor. Qoraqalpog‘iston, Jizzax, Namangan va Surxondaryoda sayyohlarga avtobus yetishmaydi. Shu bois zamonaviy samolyot olib kelinshi va aviaqatnovlarni ko‘paytirilishi lozim.

Turizmda yana bir muhim omil bu mehmonxona. Bu borada keng imkoniyat yaratilgani hisobiga, so‘nggi besh yilda mehmonxona o‘rinlari 2 baravar oshib, 60 mingtaga yetgan. Muhim narsalardan biri, bu xorijiy konsalting kompaniyalarni jalb qilib, mehmonxonalaridagi sharoitlarni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish va xizmatlarni yaxshilashga bilim va ko‘nikmalar bilan bo‘lishish juda ham o‘rinli.

Sayyohlarni ko‘proq vaqt olib qolishda yetishmayotgan narsa bu qiziqarli dasturlar va targ‘ibot hisoblanadi. Yurtimizda turizm dasturlari asosan aprel-may va sentyabr-oktyabr oylariga moslashgan. Lekin bu mavsumni uzaytirish uchun yetarli imkoniyat bor. Masalan, qishda Toshkent va Jizzax viloyatlarida chang‘i, boshqa joylarda yozda cho‘milish maskanlarini tashkil etib, turistik mavsumga yana ikki oy qo‘shish mumkin.

Shu kabi manbalar asosida, yozgi va qishki mavsumlarga mo‘ljallangan loyihalar ishlab chiqish, turistik mavsum bo‘lmagan kunlarda sayyohlar uchun qiziqarli festival va madaniyat tadbirlari tashkil qilish imkoniyati ko‘rib chiqilishi zarur.

Shuning uchun, davlatimiz rahbari 2023-yilni Vatanimizning boy madaniyati va turistik salohiyatini jahonga targ‘ib qilish yili bo‘lishi kerakligini ta’kidlab o‘tgan.

XULOSA

Turizm salohiyatini yanada oshirish va rivojlantirishda diqqatga sazovor joylar,

infratuzilma va xizmatlarni yaratish va yaxshilashni o'z ichiga oladi. Bu esa tashrif buyuruvchi sayyohlarni mamlakatga jalb qiladi. U madaniy, tarixiy va tabiiy merosni targ'ib qilish, transport va turar joy imkoniyatlarini yaxshilash, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlarni o'z ichiga oladi. Samarali turizmni rivojlantirish iqtisodiy o'sishni, madaniy almashinuvni va jamoatchilikning faolligini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, O'zbekiston, 2023 yil, Turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.01.2019 yildagi PF-5611-son. Lex.uz O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZMNI JADAL RIVOJLANTIRISHGA OID QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA
3. Muxammedov M.M., Raxmatov F. Turizm sohasida bozor munosabatlarining shakllanishi va uning tarmoq samaradorligi ko'rsatkichlariga ta'siri. // Servis va turizm: Boshqarish va rivojlantirish muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Samarqand, 2007, 4-7 sentyabr.
4. Ostonov O'.YA. O'zbekiston hududida turizm infrastrukturasi salohiyati. // O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda tabiiy va etnografik resurslardan samarali foydalanish muammolari, mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand, 2019 yil, 96 bet.
5. Xashimov SH.J. Buyuk Ipak yo'li milliy turizm rivojlanishining muhim asosi. Buyuk Ipak yo'lida umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta'lim va madaniyat. Xalqaro ilmiyamaliy konferensiya materiallari. Samarqand-SHanxay. 2019 yil, 191 bet.